



MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS

COLLECTION OF SCIENTIFIC WORKS
OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE

Issue 1(35)

**Warsaw
2021**



MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS

ISSUE 1(35)

JANUARY 2021

Collection of Scientific Works

WARSAW, POLAND
Wydawnictwo Naukowe "iScience"
25th January 2021

ISBN 978-83-949403-3-1

MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS: a collection scientific works of the International scientific conference (25th January, 2020) - Warsaw: Sp. z o. o. "iScience", 2021. - 306 p.

Editorial board:

Bakhtiyor Amonov, Doctor of Political Sciences, Associate Professor of Tashkent University of Information Technologies

Bugajewski K. A., doktor nauk medycznych, profesor nadzwyczajny
Czarnomorski Państwowy Uniwersytet imienia Piotra Mochyły

Tilabaev Sayipzhan Bakizhanovich, Candidate of Historical Sciences, Associate Professor. Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

Temirbek Ametov, PhD

Marina Berdina, PhD

Hurshida Ustadjalilova, PhD

Oleh Vodiani, PhD

Languages of publication: українська, русский, english, polski, беларуская, казакша, o'zbek, limba română, кыргыз тили, Հայերեն

The compilation consists of scientific researches of scientists, post-graduate students and students who participated International Scientific Conference "MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS". Which took place in Warsaw on 25th January, 2021.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees.

The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.

ISBN 978-83-949403-3-1

© Sp. z o. o. "iScience", 2021

© Authors, 2021

TABLE OF CONTENTS

SECTION: AGRICULTURAL SCIENCE

Жумабоев Зухриддин Муминович, Мамадалалиева Саида Баходирбековна, Фозилжонов Жавохир (Андижан, Узбекистан) ВЛИЯНИЕ ПОВТОРНОГО ПОСЕВА НА УРОЖАЙНОСТЬ ХЛОПЧАТНИКА.....	10
Рахмонова Мадина Кимсанбоевна, Саидганиева Шаходатхон Талатбек қизи, Халилова Барно (Андижан, Узбекистан) МЕРЫ БОРЬБЫ С ВРЕДИТЕЛЯМИ СКЛАДОВ ОТРЯДА ЧЕШУЕКРЫЛЫХ.....	13
Содиқова Чинора Салоҳитдиновна, Амиров Шавкат Кузибаевич, Гаппаров Шавкиддин Таджиевич (Самарканд, Узбекистан) ПЕРСПЕКТИВЫ ПРОИЗВОДСТВА МЯСА В СКОТОВОДСТВЕ.....	16

SECTION: ART STUDIES

Барибоева Айгерим Сабеновна, Сабырова Алия Султанмуратовна (Алматы, Казахстан) ОБЪЕКТИВНОСТЬ ЧЕТВЕРТОГО НАПРАВЛЕНИЯ МУЗЫКОЗНАНИЯ.....	20
--	----

SECTION: ECOLOGY

Dilmanov Islam (Nukus, Uzbekistan) ACTUAL REASONS AND KEY SOLUTIONS TO AIR CONTAMINATION	26
--	----

SECTION: ECONOMICS

Narzullayeva Gulchehra Salimovna, Toirova Ma`suma Muxamm, Qodirova Dilnoza Rasul qizi (Buxoro, O'zbekiston) SANOAT 4.0 INQILOBI VA BIZNI KUTAYOTGAN KELAJAK.....	29
Абдуллаев Зафаржон Алижонович, Чориев Фазлиддин (Ташкент, Узбекистан), Абдуллаев Алижон (Андижан, Узбекистан) ВОПРОСЫ ОПТИМИЗАЦИИ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ ПРИБЫЛИ БАНКОВ.....	35
Таирова Мавлуда Мухаммедризаевна, Ахророва Нафиса Олимжоновна, Қодирова Нозима Расул қизи (Бухара, Узбекистан) ОСОБЕННОСТИ МАРКЕТИНГА НА РЫНКАХ B2B.....	39
Турובה Хулкар Рустамовна, Чориева Нигина Кахрамоновна, Буранова Маликабону Барно қизи (Бухара, Узбекистан) КООПЕРАЦИЯ КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР ХРАНЕНИЯ И ПЕРЕРАБОТКИ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ПРОДУКЦИИ.....	42

4. Increase usage of bicycles for commuting on a daily life.

This paper analysed the special drawbacks and harmful sides of contamination, especially air pollution. It should be added that air pollution is the form ever prevailing and include the tendency to kill myriad of people around us. However, it is a low level poison does that can destroy our lungs and cause various other health problems. Moreover, people should be informed about protection of air and save the nature.

REFERENCES:

1. I. Manisalidis, E. Stavropoulou, A. Stavropoulos, E. Bezirtzoglou. Environmental and Health Impacts of Air Pollution: A Review. "Front. Public Health", 2020.
2. Dan Oduor Oluoch and Gideon Nyamasyo. Indoor Air Pollution from Cooking and its Effects on Households in Low Income Urban Areas in Developing Countries. Journal of Pollution Effects & Contro, 2020.
3. Lynne Peeples. How air pollution threatens brain health. Proceedings of the National Academy of sciences of the United States of America, 2020.

INTERNET RESOURCES:

1. <https://www.nationalgeographic.com>
2. <https://en.wikipedia.org/>

SECTION: ECONOMICS

Narzullayeva Gulchehra Salimovna
Iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi,
Toirova Ma'suma Muxamm
Iqtisodiyot kafedrası katta o'qituvchisi,
Qodirova Dilnoza Rasul qizi
Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrası talabasi
Buxoro Davlat Universiteti
(Buxoro, O'zbekiston)

SANOAT 4.0 INQILOBI VA BIZNI KUTAYOTGAN KELAJAK

Anotatsiya: *Ushbu maqola bugungi kungacha bo'lgan sanoat inqiloblari, ularning jamiyatga va iqtisodiy samaradorlikka ta'siri, shuningdek, yaqinlashib kelayotgan 4-sanoat inqilobi, uning sabablari, o'lib kelishi kutilayotgan samarasi va salbiy jihatlari tahlil qilinib keng yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *IT-texnologiya, sanoat, inqilob, mexanizatsiyalash, ishchi kuchi, biznes, mashina, logistika*

Bugungi kunda, IT-texnologiyalarning inson hayotida keng o'rin egallashi, globallashuvning kuchayishi va Internet jahon axborot tarmog'ining kengayishi iqtisodiyot sohasiga ham bevosita ta'sir o'tkazayotganini guvohi bo'lmoqdamiz. Ushbu masalalarni atroflicha tartibga solish muhim ekanligini inobatga olgan holda, oldinda kutib turgan va «Industry 4.0» deb atalayotgan texnologik inqilobning qorong'u tomoni bilan ham tanishib chiqish kelajakda yuz berishi mumkin bo'lgan salbiy jihatlarga qay tarzda yechim topa olishga zamin yaratadi.

Ma'lumki, tarixda **3 ta sanoat inqilobi** yuz bergan bo'lib, ular quyidagilar bilan bog'liq bo'lgan;

1. Bug' dvgatelining ixtiro qilinishi, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish (XVIII asr oxiri);

2. Elektrlashtirish, konveyer, mehnat taqsimoti, ommaviy ishlab chiqarish (XIX-asr oxiri – XX asr boshi);

3. Elektronika, axborot texnologiyalari industriyasi, avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish (XX asr oxiri).

Xo'sh, to'rtinchi sanoat inqilobi nima?

“To'rtinchi sanoat inqilobi – zamonaviy, aqlli texnologiyalardan foydalangan holda an'anaviy ishlab chiqarish va sanoat amaliyotlarini doimiy ravishda avtomatlashtirishdir. O'z-o'zini nazorat qilish va inson aralashuvisiz muammolarni tahlil qilish hamda tashxis qo'ya oladigan aqlli mashinalarni ishlab chiqarish uchun birlashtirilgan kata hajmdagi mashinalardan foydalanish.” [1]

Bu inqilob raqamli o'zgarishlarning hamda fizik va biologik sohalar o'rtasidagi chegaralarni buzadigan texnologiyalarning birlashishi natijasi bo'ladi. Agar bizni kutayotgan kelajakni tasvirlasak, raqamli dunyoning sanoatga chuqur kirib borishini ko'rishimiz mumkin. Umuman olganda zamonaviy rivojlangan iqtisodiyotlar va

xususan butun dunyo bo'ylab xususiylar tijorat transmilliy kompaniyalari "Sanoat 4.0" kontseptsiyasini amalga oshirishga intilmoqda. Ushbu kontseptsiya ishlab chiqarish jarayonini hamma joyda robotlashtirish va ishlab chiqarishni raqamlashtirishni ta'minlaydi.

Sanoat 4.0 inqilobi nafaqat inson qo'li bilan qilinadigan zerikarli ishlarni, balki ko'plab muntazam ishlarni bir qancha ishchilardan tortib olishi mumkin. Bunda aqlli raqamli qurilmalar tarmoqqa ulanadi va texnologik jarayonning barcha bosqichlarida o'zaro ta'sir qiladi. Ushbu turdagi ishlab chiqarish moslashuvchanligi, resurslardan oqilona foydalanish va mijozlar va biznesni



Manba: www.uza.uz

biznes jarayonlariga qo'shilishi bilan ajralib turadi. Tarmoqli fabrikada robotlar va odamlar avvalgi avlod robotlariga qaraganda yuqori darajadagi aql-idrokka ega teng huquqli sheriklarga aylanishadi.

“Shuningdek, siz biznes dunyosidagi mash'um 4.0 raqami bilan bog'liq har qanday atamani doimiy ravishda ko'rishdan charchashingiz mumkin. Tan olish kerak, biz ham. Ammo, afsuski, raqamlashtirish atamasini qo'llashni to'xtatish va uni oldindan nazorat qilishning iloji yo'q. Avvalo, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish, ma'lumotlarni real vaqtda qayta ishlash, standartlashtirish va avtomatlashtirish, katta ma'lumotlar va prognozli tahlillar kabi kalit so'zlar bilan tavsiflanadigan ishlanmalar muhim ahamiyatga egadir. Hozirda ba'zi kashfiyotchilar ushbu jarayonni to'liq avtomatlashtirish mumkin emasligini, ya'ni mavjud bo'lgan haqiqiy, rejalashtirilgan va kontekst ma'lumotlarini mashinalar bilan baholash bilan almashtirishni sinovdan o'tkazmoqdalar. Dastlabki sinovlar natija berishidan umid bor: inson mutaxassillaridan (ya'ni menejerlar va nazoratchilar) ortda qolmaydi degan prognoz mavjud bo'lib, ehtimol siyosiy o'yinlar asosiy matematik modeldan yiroq. Bayon qilinishicha, kashfiyotchilar yanada rivojlangan va murakkab jarayon yagona tizimda umumlashtiriladi yoki o'z-o'ziga xizmat qilish tizimlarida avtomatlashtiriladi.” [2]

Sanoat 4.0 inqilobi ilmiy doiralar, sanoat va hukumat tomonidan kuchli qo'llab-quvvatlanmoqda. Turli sohalardagi tadqiqotlar va ishlanmalar Germaniyada boshidanoq namoyish etilgan. 2006 yildan beri Germaniya hukumati o'zining texnologik yangiliklar, shu jumladan, sanoat avtomatizatsiyasi va robototexnika orqali kuchli raqobatbardosh pozitsiyani saqlab qolish maqsadida "Yuqori texnologiyalar strategiyasi" ni amalga oshirmoqda,. 2011 yilda «Sanoat 4.0» atamasi Gannover ko'rgazmasida birinchi marta bug' quvvati inqilobidan keyin, ommaviy ishlab chiqarish va axborot texnologiyalari robototexnika jamiyatiga ta'sirini tavsiflash uchun ishlatilgan.

"Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotini o'rganar ekanmiz, o'z-o'zidan shuni ko'rishimiz mumkinki, bunday davlatlar endilikda biz taklif etishimiz mumkin bo'lgan arzon ishchi kuchini ham tortib olishmoqda. Rivojlangan davlatlar misolida Germanyaning tekstil sohasini o'rganish natijasida kelajakda qanaqa ko'rinishda bo'lishini xohlayotganini ko'rish mumkin. Sakson tekstil sexi o'rtasida Yaponiyadan keltirilgan robot nemis lazerida materiallarni kesib, doimiy ishlab turadigan tikuv mashinasidan o'tkazib olyapti. Bir necha sekundli operatsiya bilan mahsulot tayyor.

Bu robot shesteryonkalaridan chiqayotgan ovozlarni arzon ishchi kuchiga o'qilayotgan hukmga o'xshatish mumkin. O'zi shundoq ham bu sohada investitsiya chaqirishda afzal jihatimiz arzon ishchi kuchi va ekiladigan paxtamiz edi. Tekstildagi texnologiya, stanoklar va boshqa texnik tashkil etuvchilarni shundoq ham o'sha Germaniya kabi rivojlangan davlatlar yaratadi. Ular paxta o'rniga o'ta hosildor boshqa tolali o'simliklarni ham sinovdan o'tqazmoqda. Bu degani paxta talab qiladigan minglab gektar yer ancha qisqaradi. Yer kam talab qilsa va iqlim sharoitlariga moslash imkonini bo'lsa, yer arzon joyni investitsiya kiritish uchun qidirib borish ham shart emas." [3]

Yuqorida Germaniya kabi rivojlangan davlatning faqatgina tekstil sohasidagi kelajakka nazari keltirib o'tildi.

I xulosa: kambag'al davlatlarning boy davlatlardan investitsiya kuta oladigan sohalari ancha qisqarib ketadi. Bu esa, o'z navbatida, boy davlatlar yanada boyishiga, kambag'al davlatlar yanada qashshoqlashishiga olib keladi. Endi uchinchi qatlam vakillari ularga hatto qul sifatida ham kerak bo'lmaydi.

I taklif: Sanoat 4.0 inqilobi inson qo'li bilan qilinadigan ko'p zerikarli va muntazam ishlarni yo'q qilib yuboradi. Ammo inson doimiy vaqtni oladigan qo'l mehnatidan qutilsa, aqliy mehnatga vaqt ajrata oladi. Shu o'rinda savol tug'iladi. Inson aqlni qo'l va oyoqdan ko'ra ko'proq ishlatishga tayyormi? Tayyor bo'lishi uchun qanday sharoit yaratish kerak? Shu savollarni atroflicha tahlil qilib ko'rish kerak. Endi raqobat aqliy mehnat bilan bo'ladi. Bundan tashqari, xalqaro tashkilotlar boy davlatlar kambag'al

davlatlarni iqtisodiy tomondan yanada ko'proq jazolamasligi uchun Sanoat 4.0 inqilobini global rivojlanish kontekstida ko'rib chiqishi lozim.

Iqtisodiyotda va jamiyatda bu texnologiya va sanoat transformatsiyasi yengilroq o'tishi uchun kasaba ushjumalari ishchilar tomonida turib, siyosatchilar bilan o'zaro foydali kelishuvlarni amalga oshirishi talab qilinadi.

Umuman olganda, mahsulot iste'molchiga chiqqunicha uch bosqichdan o'tadi:

g'oya va texnologiya yaratilishi, ishlab chiqarish va sotish. Bu bosqichlarda ishlab chiqarishga doim past baho berilgan. Qo'shimcha qiymat miqdorini jarayonlar

bo'yicha qarasaq, tabassumga o'xshagan shaklni olamiz. Qolgan ikkita etapda esa inson aqli ko'proq rol uynagani uchun qo'shimcha qiymati baland bo'ladi. Kelajakda bu tabassum yana ham quvnoqlashishi kutilyapti. Shu sababli ishchi sinfi Industry 4.0 boshlanishidan eng ko'p zarar ko'radi.

Buning oldini olish uchun Sanoat 4.0 inqilobi aynan qayerda va qaysi sohadan boshlanadi, qanday zanjir bo'yicha ketadi – aniq bashorat qilish kerak. Chunki kritik nuqtada bu zanjir boshqarilib bo'lmaydigan holga keladi. Xuddi bugun internetni cheklab bo'lmagani singari. Ungacha siyosatchilar, biznes vakillari, kasaba uyumalari va jamiyatning deyarli barcha qatlami bu transformatsiyani qanday qilib og'riqsiz amalga oshirish haqida bosh qotirishi kerak.

II xulosa: ishchi qatlam – dunyoning barcha davlatlarida birinchi nishon. Shu sabab ham birinchi qurbon ular bo'ladi.

II taklif: davlatlar o'z dasturlariga ishchilarni malakasini oshirish siyosatini hozirdan kiritishi kerak. Mehnat bozoridagi trendlar katta aniqlikda bashorat qilib borilishi kerak. Bunga misol sifatida Made in China 2025 va Europe 2020 Strategy dasturlarini keltirishimiz mumkin. Yevropada ishchilar uchun STEM (fan, texnologiya, injeneriya va matematika) dasturi bo'yicha malaka oshirish siyosati olib borilyapti.

Istalagan texnologik inqilob mehnat bozorida disbalansni yuzaga keltiradi. O'z o'rnida, bu davlat budjetiga katta yuk bo'ladi. Shu sababli kutilayotgan sanoat inqilobidan rivojlanayotgan davlatlar ko'proq zarar ko'radi. Sababi, ularning rivojlanish yo'lida xalqaro kompaniyalarning roli katta. Xalqaro kompaniyalar kiritgan investitsiyalar tufayli mehnat bozori shakllanib, texnologiyalar kirib keladi. Buning ketidan o'rta sinf shakllanadi va yashash sharoitlari ma'lum darajagacha ko'tariladi. Sanoat transformatsiyasi esa bu kichik barqarorlikni shubha ostiga qo'yadi. Bu iqtisodiy va siyosiy inqirozni keltirib chiqarishi mumkin.

Rivojlanayotgan davlatlarning eng katta kamchiligi kutilayotgan risklar haqida to'liq tasavvurga emasligidir. Ular rivojlangan davlatlar joriy qilmoqchi bo'lgan yangilik keltirib chiqaradigan muammolar turi va tabiatini tushunmaydi. Shu sababli bu muammolarni vaqti kelganda o'z terilarida sinab ko'rishga majbur.

III xulosa: rivojlanayotgan davlatlar eng ko'p talofat ko'radi va ular yana qaytib qashshoq davlatlar safiga qaytishi mumkin.

III taklif: dunyoga maksimal ochilish. Ochiq siyosat olib borish. Qaror qabul qilayotganda aholining turli qatlamlari xohishini inobatga olish. Dunyo tajribalarini to'g'ri adaptatsiya qilish. O'zi qurmoqchi bo'lgan jamiyatini chuqur o'rganish va u haqda to'liq ma'lumotga ega bo'lish. Globalizatsiyaga qarshilik qilmaslik. Investitsiyalarni katta qismini texnologiya ko'rinishida kiritish. Kirib kelayotgan texnologiyalarni maksimal o'zlashtirish. Hukumat va xalq orasidagi doimiy muloqot. Aksincha bo'lsa, Sanoat 4.0 inqilobi bizni o'n pog'ona pastga tepib yuboradi.

Sanoat 4.0 inqilobi eng avvalo har jabhaga internet va raqamli texnologiyalarni kirib borishidir. Demak, istalagan xaker yoki dasturchi masofadan turib shaxsiy hududingizga kirishi mumkin. Bu esa biznes va xavfsizlik borasida yangi o'yinlarga moslashishni talab etadi. Xavfsizlikda nisbatan yangicha qarashlarni shakllantirish talab qilinadi. Endi ko'chadagi bezoridan ko'ra ko'proq raqamli bosqinchilar xavf uyg'otadi. Endi nafaqat katta kompaniyalar, balki kompaniyaning ishchilaridan ham xavfsizlik talabiga javob berish so'raladi: birgina yo'qotilgan smartfon orqali u boshqaradigan uskunalar va kompaniyalarning boshqa

hududlariga kirish imkonini begonaga yaratib berish mumkin. Xavfsizlik uchun faqatgina dasturlar yoki uskunalar bilan himoyalaniş yaramaydi. Endi xavfsizlik borasida kompaniyalarga real vaqtda monitoring qiladigan bo'limlar va xavfsizligini doimiy takomillashtiradigan laboratoriyalar kerak bo'ladi

« Sanoat 4.0 inqilobi inson hayotini yaxshilash bilan birga hali yechim talab qiladigan bir talay muammolarni o'rtaga tashlaydi. Bu muammolarning bir qismi bilan qisqacha tanishgan holda, o'zimizga umumiy xulosani chiqaramiz;

✓ gastarbayerlarimiz uchun arzon ishchi kuchiga talab bo'lgan yangi bozorlarni qidirish o'rniga ularning malakasini yoppasiga oshirishni o'ylashimiz kerak;

✓ eshik va derazalar ochilsin. Kirsin yangi shamol va yangi g'oyalar. Milliy ma'naviyatni muzeyga jo'natish vaqti keldi;

✓ faqat g'oyalar yangi ish o'rinlarini yaratadi;

✓ ta'limga investitsiyani bir necha barobarga orttirishimiz kerak. Ta'lim har sohaga kirib borishi lozim;

✓ ishlab chiqarishda har bir ishchi amaliy bilimlaridan tashqari muhandislik va dasturlashdan xabari bo'lishi kerak;

✓ har bir ma'lumoti bor ishchi umumiy dasturlash tillarini bilishi kerak. Shu sababli bog'cha va maktabdan informatsion texnologiyalar o'ta chuqurlashtirilgan holda 8.o'rgatilishi talab qilinadi;

✓ maksimal ochiq va shaffof siyosat olib borish va xalq bilan doimiy muloqotda bo'lish lozim.

Hech qanday o'zgarishdan qo'rqmang. Shunchaki unga tayyor bo'ling», deydi o'zbek yosh olimi Rustam Ashurov ijobiy va salbiy jihatlar haqida fikr yurita turib.

Aniq jihati shuki, tahlil va umumiy ta'lim madaniyati hech qachon hozirgi kabi qadrli bo'lmagan. Sanoat 4.0 inqilobining yaxshi tomoni shundaki, sanoat, ilm-fan, iqtisodiyot kabi ko'plab sohalar sezilarli darajada o'zgarishda davom etmoqda. Shuning uchun oldinda turgan inqiroziy bosimni iloji boricha tezroq tan olish hamda yangi investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash va umumiy ma'noda, tegishli vakolatlarni o'z vaqtida rivojlantirishga intilish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. www.wikipedia.org
2. Utz Schäffer, Jürgen Weber; "Controlling 4.0"; Schwerpunkt; 2016
3. R. Ashurov; "Endi savodsiz bo'lishga haqqimiz yo'q. To'rtinchi sanoat inqilobi: Oynning qorong'u tomoni"
4. Abdulloev, A. (2020). Water, Energy, and Food Nexus in the Amu-Darya River Basin: Analysis of Water Demand and Supply Management Infrastructure Development at Transboundary Level.
5. Mukhammadrizayevna, T. M., & Bakhriddinova, A. N. (2020). REQUIREMENTS FOR QUALITY, LOGISTICS AND SAFETY WHEN GROWING AGRICULTURAL PRODUCTS. Достижения науки и образования, (10 (64)).
6. Tairova, M. S. M., Giyazova, N. B., & Dustova, A. K. (2020). Goal and objectives of integrated marketing communications. Economics, (2), 5-7.

7. Таирова, М. М., & Кодирова, Н. Р. (2020). Инновация-концептуальная основа модернизации. Наука и образование сегодня, (2 (49)).
8. Таирова, М. М., & Рахматуллаева, Ф. М. (2014). Прямые иностранные инвестиции как фактор развития инновационной экономики. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, (8-1).
9. Таирова, М. М., & Рахматуллаева, Ф. М. (2015). Условия формирования инновационной экономики. Наука 21 века: вопросы, гипотезы, ответы, (1), 115-118.
10. Таирова, М. М., Аминова, Н. Б., & Рахманкулова, Н. О. (2020). Стратегия развития управления цепями поставок в обрабатывающей промышленности. International scientific review, (LXXI).
11. Уракова, М. Х. (2014). Роль малого бизнеса и частного предпринимательства в повышении занятости населения. Экономика и эффективность организации производства, (20), 54-55.
12. Уракова, М. Х. (2017). Пути улучшения природопользования и охраны окружающей среды. Экономика и социум, (1-2), 819-822
13. Кайимова, З. А., & Бахтиёрова, Г. Б. (2020). Диверсификация-стратегия корпорации в повышении эффективности производства. Наука и образование сегодня, (2 (49)).